

TERMINLAR TAHLILI

Nazarmatova Yorqinoy

Termiz davlat universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqola terminlarni tahli qiladi vaa ularni mohiyatiga lingvistik nuqtai nazardan o'quvchi uni anglashi uchun ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilingan. Obyekt sifatida tanlangan terminlarning vazifasi o'ylab topilgan, so'ngra uni lingvistik qoliplarga solingan. Shu tufayli maqolada ularni o'zbek tili etimologik, leksikologik, semantik va fonetik jihatdan tahlil qilishi uchun qoliplar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: terminlar, lingvokulturologik muammolar, leksikologiya, etimologiya, leksikologiya.

ANALYSIS OF TERMS

ABSTRACT

This article analyzes the terms and analyzes their meaning from a linguistic point of view, taking into account the factors that influence the understanding of the reader. The function of the selected terms as an object was invented, and then it was put into linguistic patterns. As a result, the article offers templates for their analysis of the Uzbek language in terms of etymology, lexicology, semantics and phonetics.

Keywords: terms, linguocultural problems, lexicology, etymology, lexicology.

АНАЛИЗ УСЛОВИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются термины и проводится их анализ с лингвистической точки зрения с учетом факторов, влияющих на понимание читателем. Была придумана функция выделенных терминов как объекта, а затем она была заложена в языковые модели. В результате в статье предлагаются шаблоны для их анализа узбекского языка с точки зрения этимологии, лексикологии, семантики и фонетики.

Ключевые слова: термины, лингвокультурологические проблемы, лексикология, этимология, лексикология.

KIRISH

Leksik muammolar har doim tahlilning eng markaziy nuqtalaridan biri bo'lib kelgan. Ian Tuhoviskiy asarini tarjima qilish jarayoni shu qadar, inson satrlarga chuqur kiruvchi va munozaraliki kuchli stilistika olamida yashashi mumkin. Asarning soʻz qurilishi oldiga ulkan izlanish va tahlillarni talab qiladigan ulkan vazifalarni qoʻydi. Barcha joylarga nom beriladi va bu nom unga yillar davomida xizmat qiladi. Terminlar maʼlum bir boʻlimlarda yaʼni sohalarda ishlatiladi, xalq orasida esa kam uchraydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYASI

Mazkur maqola uchun tadqiqot davomida qiyosiy adabiyot, qarama qarshi tavsifli tarjima va lingvistik atamalarining izohli tahlili, adabiyotning stilistik tahlili koʻrib, oʻrganilib chiqildi. Ushbu tadqiqot uchun, “Tarjimashunoslik terminlarining koʻp tilli lugʻat-maʼlumotnomasi” qoʻllanmasidan foydalanildi.

Atamalar maʼlum fan yoki kasb-hunar sohasidagi muayyan bir tushunchani aniq ifodalash maʼnosi maxsuslashtirilgan soʻz yoki soʻz birikmasidir.

“Oʻzbek tili” -(Oʻzbekcha) — Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi. Davlat tili haqidagi qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi.

NATIJA

Atamalarni imkon qadar milliyashtirish, tilimizning ichki imkoniyatlaridan atamalar yaratishda unumli foydalanish (kichik korxona, jamoa xoʻjaligi, tadbirkor, qoʻshma korxona kabi), shu bilan birga, iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-texnik taraqqiyotimizga doir yangi tushunchalari ifodalovchi chet tilidan kirib kelgan atamalarni ham zarur hollarda qabul qilish (kompyuter, fermer, dizayn) hozirgi atamashunosligimizning bosh tamoyili hisoblanadi. Shuning uchun xalq oʻrtasida keng isteʼmolda boʻlgan radio (ovoznigor emas), aeroport (tayyoragoh emas), institut (oliygoh emas), avtobus (koʻpkursi emas), telefon (durovoz emas), samolyot (uchoq emas) kabi atamalar tilimizda saqlab qolindi.

MUHOKAMA

Atamalar quyidagicha hosil qilinadi:

1) Umumxalq tilida mavjud boʻlgan soʻzlarning maʼnosini maxsuslashtirish yoʻli bilan hosil qilinadi. Masalan, matematikada ildiz tushunchasi umumxalq tilidagi ildiz tushunchasidan farqlanadi. Yoki qosh soʻzi duradgorlik kasbida ham umumxalq tilidagi odamning yuz qismida koʻz kosasidan tepada yoysimon shaklda oʻsib chiqqan yung maʼnosidan boshqa tushunchani ifodalaydi. Hol, sifat, ega, ot, ildiz kabi atamalar shu yoʻl bilan hosil qilingan.

2) Boshqa tillardan ilmiy tushunchalar uchun atama olish orqali hosil qilinadi. Bular faqat shu fan sohasidagina ishlatilib, umumxalq tilida ishlatilmaydi. Masalan, fonema, valentik, element, sinus, kosinus, kasr, musbat, manfiy va hokazo.

Kasbiy atamalar - ma'lum kasb-hunar egalari ishlatadigan so'zlar. Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonning mehnat faoliyatini ko'rsatish uchun uning kasb-hunariga oid so'zlardan ham foydalanadilar. Andaza, angishvona, bichiqchi, chok, qiytim, qiyqindi kabilar tikuvchilik kasbiga doir so'zlardir. Katta osma lampa tutabroq yonganidan do'konxonada is va qurum hidi bilan to'lgan havo darrov dimoqqa urar edi. Ustaning shogirdi - o'n to'rt yashar Yo'ldosh - deraza oldida o'tirardi: shon qirqilgan, bo'yi bir qarich kelar-kelmas tayyor mahsilami (Shokir ota bachkanado'z edi silliq yog'och bilan kuchi boricha ishqalab, so'ng qora gul surkab ularga pardo berardi.

Bo'zchilar nutqidan parcha: Safar aka mokiga yangi naycha joylab, yana ishga urindi. Ichkarida charx toblab naycha solish bilan mashg'ul To'xtabibi ko'ylak yengini iplik o'rishchalar bilan to'ldirib chiqdi. Gap-so'zsiz o'rishchalarni eski to'ppiga ag'darib, bo'shagan naychalarni yig'ib oldi.

Safar bo'zchi oshdan so'ng ishxonasiga chiqdi. Dastgoh yonidagi qora chiroqni yoqib, o'rishdagi uzuqlarni uladi, aymashgan iplarni yechdi, chigallari yozib tarog'ladi, og'zi bilan oxor burkib, yana taradi va eng so'ng quritish uchun o'rishni yelpidi. O'rish to'qishga rostlangandan keyin eski do'ppidagi naychaga solingan iplarni (arqoqni) olib dastgohga tushdi, tig' va gulani orqaga surib, mokini rostladi.

XULOSA

Maqoladagi atamalar ma'lum sohalarda ishlatiladi va xalq tilini rivojlantirishga xizmat qiladi, atamalar ranginligi va ularning vazifasi orqali tanlanadi. Terminlarni qo'llash jarayonida e'tiborli bo'lish talab etiladi. Har bir termin o'zining ma'lum bir mohiyatga ega. Ba'zida asarning asliyat tilida keltirilgan atamalarni tarjima tiliga o'girish shart emas. Ularning o'z holicha qolgani maqsadga muvofiq. Atamalarni tarjima qilish jarayonida tarjimasi xato belgilansa atamaning butun vazifasi va sohadagi ma'nosi o'zgarib ketadi. Bu esa nutqning g'aliz bo'lib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kamoljonovich, Solijonov Juraali. "JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI." Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 2.1 (2022): 334-343.
2. N. Erkaboyeva "Ona tili fanidan ma'ruzalar to'plami" Toshkent - 2020

3. Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVISKIY ASARLARI MISOLIDA). Ta'lim fidoyilari, 18(5), 32-37.
4. Solijonov, J. K., & Yuldashev, N. U. B. O. G. L. (2022). TOPONIMLARNI TARJIMA QILISH MUAMOLARI (IAN TUHOVISKIYNING "YIGIRMA BIR KUNLIK SAMARALI MULOQOT" ASARI MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(4), 715-720.
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Terminologiya>